



## THE COLLECTIVIZATION POLICY IN UZBEKISTAN AND ITS CONSEQUENCES

*Ezoza Turaeva*

*Doctoral Researcher (PhD Candidate)*

*Jizzakh State Pedagogical University*

*Jizzakh, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

---

**Key words:** collectivization, dekulakization, Soviet policy, Uzbek SSR, cotton monoculture, agriculture, peasants, agrarian policy, totalitarian system, forced labor.

**Received:** 20.05.26

**Accepted:** 21.05.26

**Published:** 22.05.26

**Abstract:** This article scientifically analyzes the essence and content of the collectivization policy implemented in Uzbekistan during the Soviet period, its socio-economic and political foundations, and its impact on social life. The study employs the methods of historicism, systematic approach, comparative analysis, and source studies. It is substantiated that the collectivization policy carried out in Uzbekistan during the 1920s–1930s not only radically transformed the agricultural system, but also had a negative impact on national values, traditional property relations, and the lifestyle of peasants. In addition, the article examines the policy of dekulakization, the system of forced labor, the formation of cotton monoculture, and its long-term consequences. According to the results of the study, although the collectivization policy served short-term economic goals, its social and demographic consequences negatively affected the lives of the population for many years.

---

## O‘ZBEKISTONDA JAMOALASHTIRISH SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI

*E’zoza Turaeva*

*Tayanch doktorant*

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*Jizzax, O‘zbekiston*

---

### MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit soʻzlar:** jamoalashtirish, kollektivlashtirish, quloqlashtirish, sovet siyosati, Oʻzbekiston SSR, paxta yakkahokimligi, qishloq xoʻjaligi, dehqonlar, agrar siyosat, totalitar tizim.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Oʻzbekistonda sovet hokimiyati davrida amalga oshirilgan jamoalashtirish siyosatining mazmun-mohiyati, uning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy asoslari hamda jamiyat hayotiga koʻrsatgan taʼsiri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil va manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Oʻzbekistonda 1920–1930-yillarda olib borilgan kollektivlashtirish siyosati qishloq xoʻjaligi tizimini tubdan oʻzgartirish bilan bir qatorda, milliy qadriyatlar, anʼanaviy mulkchilik munosabatlari va dehqonlar turmush tarziga ham salbiy taʼsir koʻrsatgani asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada quloqlashtirish siyosati, majburiy mehnat tizimi, paxta yakkahokimligining shakllanishi va uning uzoq muddatli oqibatlari ham tahlil etilgan. Tadqiqot natijalariga koʻra, jamoalashtirish siyosati iqtisodiy jihatdan qisqa muddatli maqsadlarga xizmat qilgan boʻlsa-da, uning ijtimoiy va demografik oqibatlari uzoq yillar davomida xalq turmushiga salbiy taʼsir koʻrsatgan.

---

## ПОЛИТИКА КОЛЛЕКТИВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЁ ПОСЛЕДСТВИЯ

*Эъзога Тураева*

*Базовый докторант (докторант PhD)*

*Джизакский государственный педагог*

*Джизак, Узбекистан*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** коллективизация, раскулачивание, советская политика, Узбекская ССР, хлопковая монокультура, сельское хозяйство, дежкане, аграрная политика, тоталитарная система, принудительный труд.

**Аннотация:** данной статье научно анализируются сущность и содержание политики коллективизации, проводившейся в Узбекистане в период советской власти, её социально-экономические и политические основы, а также влияние на жизнь общества. В исследовании использованы методы историзма, системного подхода, сравнительного анализа и источниковедения. Обосновывается, что политика коллективизации, осуществлявшаяся в Узбекистане в 1920–1930-х годах, наряду с коренным преобразованием системы сельского

хозяйства, оказала негативное воздействие на национальные ценности, традиционные отношения собственности и образ жизни дехкан. Кроме того, в статье проанализированы политика раскулачивания, система принудительного труда, формирование монокультуры хлопководства и её долгосрочные последствия. По результатам исследования установлено, что, несмотря на краткосрочную экономическую эффективность политики коллективизации, её социальные и демографические последствия на протяжении многих лет отрицательно сказывались на жизни населения.

---

**Kirish.** XX asrning 20–30-yillarida Sovet Ittifoqi tarkibidagi respublikalarda amalga oshirilgan iqtisodiy va siyosiy islohotlar orasida jamoalashtirish siyosati alohida o‘rin tutadi. Ushbu siyosat Sovet davlatining agrar sohadagi strategik maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, qishloq xo‘jaligini markazlashtirish, xususiy mulkchilikni tugatish va kollektiv xo‘jaliklarni tashkil etishni nazarda tutgan. O‘zbekiston hududida ham bu siyosat keskin va majburiy shaklda amalga oshirildi.

Jamoalashtirish siyosati dastlab qishloq xo‘jaligini modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida ilgari surilgan bo‘lsa-da, amalda u totalitar boshqaruv tizimining muhim vositasiga aylandi. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi agrar hududlarda bu siyosat milliy iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlarga jiddiy ta‘sir ko‘rsatdi. Dehqonlarning yer va mulkidan mahrum qilinishi, quloqlashtirish siyosati, ommaviy surgunlar va paxta yetishtirishning majburiy tarzda kengaytirilishi xalqning turmush darajasini keskin pasaytirdi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, jamoalashtirish siyosati nafaqat iqtisodiy jarayon, balki siyosiy va ijtimoiy hodisa sifatida ham O‘zbekiston tarixida chuqur iz qoldirdi. Bugungi kunda tarixiy xotirani tiklash, totalitar tizim oqibatlarini o‘rganish va tarixiy haqiqatni yoritish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Materialar va metodlar. Mazkur tadqiqotni amalga oshirishda tarix fanining zamonaviy ilmiy metodologiyasiga tayangan holda turli manbalar va ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida sovet davriga oid arxiv hujjatlari, hukumat qarorlari, statistik ma‘lumotlar, tarixiy adabiyotlar va mustaqillik davrida chop etilgan ilmiy tadqiqotlar xizmat qildi.

Tadqiqotda birinchi navbatda tarixiylik tamoyiliga amal qilindi. Ushbu metod yordamida jamoalashtirish siyosatining shakllanishi, rivojlanishi va oqibatlari tarixiy ketma-ketlik asosida o'rganildi. Har bir tarixiy voqea o'z davrining siyosiy va iqtisodiy sharoitlari bilan bog'liq holda tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil metodi orqali O'zbekistondagi jamoalashtirish jarayoni boshqa sovet respublikalari, xususan Qozog'iston va Rossiyadagi kollektivlashtirish siyosati bilan solishtirildi. Bu esa O'zbekiston hududidagi jarayonlarning o'ziga xos jihatlari aniqlash imkonini berdi.

Tizimli yondashuv asosida jamoalashtirish siyosati faqat iqtisodiy hodisa sifatida emas, balki siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan uzviy bog'liq murakkab jarayon sifatida o'rganildi. Shu orqali mazkur siyosatning xalq turmushi, milliy qadriyatlar va demografik holatga ta'siri keng qamrovda tahlil qilindi.

Statistik ma'lumotlarni tahlil qilish metodidan foydalanish orqali kollektiv xo'jaliklar sonining o'sishi, paxta yetishtirish hajmi, surgun qilingan oilalar soni va boshqa ko'rsatkichlar o'rganildi. Bu ma'lumotlar tarixiy jarayonlarning miqyosi va oqibatlarini aniqroq baholash imkonini berdi.

Tadqiqot davomida manbashunoslik metodidan ham keng foydalanildi. Sovet davrida yaratilgan manbalardagi mafkuraviy yondashuvlar mustaqillik davri tadqiqotlari bilan solishtirilib, tarixiy haqiqatni aniqlashga harakat qilindi.

#### Munozara va natijalar

1917-yildagi Oktyabr to'ntarishidan so'ng Sovet hokimiyati mamlakat iqtisodiyotini to'liq davlat nazoratiga olish siyosatini boshladi. Bu jarayonda agrar soha eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida qaraldi. Lenin davrida yerlarning davlat tasarrufiga o'tkazilishi va yirik yer egaligiga barham berilishi amalga oshirilgan bo'lsa, Stalin hokimiyatga kelgach bu siyosat yanada keskin tus oldi.

1927-yilda VKP(b)ning XV syezdi kollektivlashtirish siyosatini rasmiy ravishda e'lon qildi. Unga ko'ra, qishloq xo'jaligida xususiy mulkchilik tugatilib, dehqon xo'jaliklari kolxoz va sovxozlarga birlashtirilishi kerak edi. O'zbekistonda ham ushbu siyosat tez sur'atlarda amalga oshirildi.

O'zbekiston agrar respublika bo'lganligi sababli sovet hokimiyati bu hududni paxta yetishtirish bazasiga aylantirishni maqsad qilgan edi. Shu sababli kollektivlashtirish jarayonida paxta ishlab chiqarishni oshirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

1929-yildan boshlab "yalpi jamoalashtirish" siyosati e'lon qilindi. Mahalliy hokimiyat organlari va partiya tashkilotlari dehqonlarni majburiy ravishda kolxozlarga birlashtirishga

kirishdi. Natijada qisqa muddat ichida minglab dehqon xo'jaliklari kollektiv xo'jaliklarga aylantirildi.

Jamoalashtirish siyosatining eng keskin va fojeali jihatlaridan biri quloqlashtirish kampaniyasi bo'ldi. Sovet hokimiyati nisbatan boy va o'ziga to'q dehqonlarni "quloq" deb e'lon qilib, ularni sinfiy dushman sifatida ko'rsatdi.

Aslida esa quloq deb atalgan dehqonlarning aksariyati o'z mehnati bilan yashovchi oddiy xo'jalik egalari edi. Ularning mol-mulkleri musodara qilindi, uy-joylari tortib olindi va ko'plab oilalar Sibir hamda boshqa uzoq hududlarga surgun qilindi.

O'zbekistonda quloqlashtirish siyosati ayniqsa 1930–1933-yillarda kuchaydi. Statistika ma'lumotlarga ko'ra, minglab oilalar o'z yurtidan majburan ko'chirildi. Bu esa qishloq xo'jaligida tajribali mehnatkash qatlamning yo'qolishiga olib keldi.

Quloqlashtirish siyosati dehqonlar orasida qo'rquv va norozilik kayfiyatini kuchaytirdi. Ko'plab odamlar o'z mulkidan ayrilishdan qo'rqib chorva mollarini so'yib yuborishdi yoki yashirin ravishda boshqa hududlarga ko'chib ketishdi. Natijada qishloq xo'jaligida jiddiy inqiroz yuzaga keldi.

Jamoalashtirish natijasida O'zbekistonda kolxoz va sovxozlar tizimi shakllandi. Kolxozlar dehqonlarning umumiy mehnatiga asoslangan kollektiv xo'jaliklar bo'lsa, sovxozlar to'liq davlatga tegishli xo'jaliklar edi.

Kolxozlarda dehqonlar o'z yerlariga egalik qilish huquqidan mahrum bo'ldilar. Barcha ishlab chiqarish vositalari umumlashtirildi. Mehnat natijalari esa davlat tomonidan belgilangan reja asosida taqsimlandi.

Amalda esa kolxoz tizimi dehqonlarning iqtisodiy manfaatdorligini pasaytirdi. Majburiy mehnat, past daromad va qat'iy davlat nazorati qishloq aholisi turmushini og'irlashtirdi.

Sovet hokimiyati kolxozlarni texnika bilan ta'minlash maqsadida mashina-traktor stansiyalarini tashkil etdi. Biroq texnika yetishmasligi va malakali mutaxassislarining kamligi sababli ishlab chiqarish samaradorligi kutilgan darajada oshmadi.

Jamoalashtirish siyosati bilan bir qatorda O'zbekistonda paxta yakkahokimligi ham shakllandi. Sovet markazi O'zbekistonni asosan paxta yetishtiruvchi hudud sifatida rivojlantirishga intildi.

Natijada oziq-ovqat ekinlari maydoni qisqarib, paxta maydonlari kengaytirildi. Bu esa aholining oziq-ovqat bilan ta'minlanishida muammolarni yuzaga keltirdi.

Paxta rejasini bajarish uchun dehqonlar majburiy mehnatga jalb qilindi. Kolxozlar davlat tomonidan belgilangan rejalarni bajarishga majbur edi. Rejani bajarmagan xo'jaliklar jazoland.

Paxta yakkahokimligi uzoq muddatli ekologik muammolarni ham keltirib chiqardi. Sugʻorish tizimining notoʻgʻri tashkil etilishi va suv resurslarining haddan tashqari ishlatilishi keyinchalik Orol dengizi fojeasiga sabab boʻlgan omillardan biri boʻldi.

Jamoalashtirish siyosati Oʻzbekiston aholisining ijtimoiy hayotiga ham katta taʼsir koʻrsatdi. Avvalo, anʼanaviy qishloq turmush tarzi va mahalla tizimida keskin oʻzgarishlar yuz berdi.

Dehqonlarning oʻz yeriga egalik qilish huquqi bekor qilinishi ularning iqtisodiy mustaqilligini yoʻqotdi. Koʻplab oilalar qashshoqlashdi va davlatga qaram holatga tushib qoldi.

Surgunlar va repressiyalar natijasida minglab oilalar parokanda boʻldi. Bu esa demografik tarkibga salbiy taʼsir koʻrsatdi. Koʻplab odamlar ocharchilik, ogʻir mehnat va kasalliklar oqibatida halok boʻldi.

Jamoalashtirish jarayonida milliy qadriyatlar va anʼanaviy dehqonchilik madaniyati ham zarar koʻrdi. Qadimiy yerga egalik va oilaviy xoʻjalik yuritish tizimi izdan chiqdi.

XX asrning 1920–1930-yillarida SovetIttifoqida qishloq xoʻjaligini tubdan qayta qurishga qaratilgan siyosat —kollektivlashtirish amalga oshirildi. Ushbu siyosatning asosiy maqsadi yakka dehqon xoʻjaliklarini tugatib, ularni kolxoz va sovxozlarga birlashtirish orqali davlat nazoratini kuchaytirish edi. Biroq kollektivlashtirish jarayoni majburiy, zoʻravonlik va repressiyalar asosida olib borilgani sababli jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ogʻir oqibatlarga olib keldi. Kollektivlashtirish —dehqonlarning yer, chorva va mehnat vositalarini umumiy mulkka aylantirish jarayoni boʻlib, u markazlashgan boshqaruvni kuchaytirishga xizmat qildi. Bu jarayon “kulaklarni sinf sifatida tugatish” shiori ostida olib borildi. Natijada oʻrta va boy dehqonlar mulkidan mahrum qilindi, surgun qilindi yoki qatagʻonga uchradi.Kollektivlashtirishning eng ogʻir oqibatlaridan biri qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishining keskin pasayishi boʻldi. Dehqonlarning shaxsiy manfaatlari yoʻqolib, mehnatga boʻlgan ragʻbat sustlashdi. Chorva mollari majburiy tortib olinishi sababli ularning soni keskin kamaydi. Oziq-ovqat tanqisligi yuzaga kelib, ayrim hududlarda ocharchilik holatlari kuzatildi. Mazkur siyosat jamiyatda katta ijtimoiy larzalarga sabab boʻldi. Millionlab dehqonlar oʻz yashash joylarini tark etishga majbur boʻldi. Oilalar parchalandi, qishloq aholisining shaharlarga majburiy migratsiyasi kuchaydi. Kollektivlashtirish jarayonida zoʻravonlik, qoʻrqitish va jazolash usullari keng qoʻllanildi. Yersuv islohoti arafasida qishloq xoʻjalik mahsulotlarini ishlab chiqarish 1914-yilgi darajada nisbatan 1921-yilda 48,8 foizga qisqardi [5.B -180] Shuningdek, respublikamiz qishloq xoʻjaligiga 20-yillar oxiri Shoʻro inqilobidan soʻngi vaqtda ham yerlarning taqsimlanishi bir xilda amalga oshirilmadi. Aholining koʻp qismini tashkil etuvchi oʻrta hol dehqonlarning xoʻjalik tomorqasi 15-20 desyatinadan oshgan emas. Rahbariyatda esa yollanma ishchilar sonining

qisqarishi mustaqil xo'jaliklarning ko'payishi tufayli sodir bo'lmoqda, degan fikr mavjud bo'lsada, amalda buning teskarisi edi. Kambag'allar soni ko'paydi. Kambag'al va yo'qsillar xo'jaliklarining ko'payishi birinchi navbatda o'rta hol dehqonlar xo'jaliklarining barham topishi tufayli yuz berdi. Masalan, yeri yo'qlar soni Samarqand viloyati o'troq tumanlari bo'yicha 1917-yilda 0,5% bo'lsa, 1920-yilda 3,3% ga yetdi. Sirdaryo viloyati bo'yicha 4,4% dan 6,9 foizgacha o'sdi[4.B -54]Qishloq kambag'lasha bordi. Sababi qishloqdagi o'ziga to'q toifa iqtisodiy qudratining siquvga olishining sinfiy qarama-qarshilik siyosiy natijasida umumqashshoqlik yuz berishidir. Ushbu salbiy holatlarni tugatish uchun agrar va ijtimoiy siyosatda o'zbek qishlog'ining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olish zarur edi. Uning ijtimoiy tuzilmasidagi asosiy elementlarning mutanosibligini saqlab turish maqsadida qishloq xo'jaligi sohasida ma'lum ishlar rejalashtirildi. Umuman Turkistonda qishloq xo'jaligini tiklash uchun irrigatsiya inshootlarini tartibga solish maqsadida biroz oldinroq ham davlat budjeti tomonidan Turkistonga 1922-yilda 4 ming so'm, 1923-yilda -5567 so'm, 1925 yilda -2971 so'm ajratilgan edi.[1]Tarixiy tajriba nuqtai nazaridan 1921–1922-yillar islohatini baholaydigan bo'lsak, shuni ta'kidlab o'tish joizki, o'sha voqealarning asl mohiyati harbiy kommunizm rejimiga borib taqaladi. Bu islohat yerdan foydalanish bo'yicha mehnatni taqsimlash tamoyiliga asoslangan edi. Yana shuni aytib o'tish kerakki, islohot o'tkazish davrida o'lkani o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinmadi va shoshilinch ravishda ish olib borildi. Kuch ishlatish usullaridan butunlay voz kechish kerakligi inobatga olinmadi. Yangi iqtisodiy siyosatga o'tish islohotining iqtisodiy vositalar orqali o'tkazilishini, ya'ni kooperatsiyaning turli formalaridan foydalanishni taqozo etardi. 1921–1922-yillardagi yer-suv islohatini o'tkazish mobaynida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tuzatish ham kuch ishlatish yo'li bilan olib borildi. Ko'chib kelgan aholining asosiy ommasi quloqlar deb e'lon qilindi. Ularning o'z manfaatlarini himoya qilib chiqishlari esa "quloq –mustamlakachi elementlarning qarshi kurashi" deb baholandi. Yer-suv islohoti favqulodda tadbir sifatida olib borildi. Uning asosiy vositasi –ma'muriy siquvga olish bo'ldi. O'ziga to'q ko'chib kelganlardan nafaqat mehnat me'yoridan ortiqcha sanalgan yer, balki qishloq xo'jalik qurollari ham tortib olindi. Bunday yondashuv esa qishloq aholisining sinfiy va milliy jihatdan parchalanishiga olib keldi.1925-1941 yillarda O'zbekiston SSRda amalga oshirilgan qishloq xo'jaligi islohotlari, xususan kollektivlashtirish va paxtachilikni rivojlantirish siyosati, Buxoro shahri va uning atrofidagi hududlarga ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. Buxoro o'sha davrda O'zbekiston SSR tarkibiga kirgan va an'anaviy qishloq xo'jaligi, savdo va madaniyat markazi sifatida muhim rol o'ynagan. Quyida bu islohotlarning Buxoroga ta'siri haqida

batafsilroq ma'lumot keltirilgan: Kollektivlashtirishning Buxoroga ta'siri: -An'anaviy dehqonchilikning buzilishi: Buxoro va uning atrofidagi hududlarda an'anaviy dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan edi. Kollektivlashtirish siyosati natijasida dehqonlar o'z yerlaridan mahrum bo'lib, ularning yerlari kolxozlar va sovxozlar ixtiyoriga o'tkazildi. -Qarshiliklar va repressiyalar: Buxoroda ham kollektivlashtirishga qarshilik ko'rsatilgan. Ko'pchilik dehqonlar o'z yerlarini va mol-mulkini yo'qotganliklari sababli norozilik bildirishgan. Bu noroziliklar Sovet hukumatining qattiq choralariga olib keldi: ko'plab dehqonlar va mahalliy rahbarlar qatag'on qilindi yoki surgun qilindi [2.B -69].1925-1941 yillarda Sovet Ittifoqining qishloq xo'jaligi siyosati doirasida O'zbekiston SSRda keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Bu davrda qishloq xo'jaligida kollektivizatsiya, majburiy paxta yetishtirish va texnik modernizatsiya jarayonlari olib borildi. Ushbu islohotlar mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishiga katta ta'sir ko'rsatdi. 1928-yilda Sovet Ittifoqida boshlangan kollektivizatsiya O'zbekistonda ham jadal suratda amalga oshirildi. Kichik fermer xo'jaliklari majburan kolxoz (jamoat xo'jaliklari) va sovxozlarga (davlat xo'jaliklari) aylantirildi. Shaxsiy mulk bekor qilinib, davlat nazorati ostidagi yirik qishloq xo'jalik korxonalar yaratildi. Stalin rejimi O'zbekiston SSRni Sovet Ittifoqining asosiy paxta yetkazib beruvchi mintaqasiga aylantirishni maqsad qildi. Natijada, oziq-ovqat ekinlari ekilishi kamayib, dehqonlar paxta yetishtirishga majbur qilindi. Bu esa qishloq xo'jaligida katta muammolar keltirib chiqardi: -G'alla va oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligi yuzaga keldi. -Tuproq eroziyasi va ekologik muammolar kuchaydi. -Ishlab chiqarish hajmi ortgan bo'lsa-da, dehqonlarning hayot sharoitlari yomonlashdi. Texnik modernizatsiya va Sug'orish ishlari; 1930-yillarda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish uchun traktor va qishloq xo'jaligi texnikalari keltirildi. Sug'orish tizimlarini yaxshilash maqsadida katta miqyosdagi kanallar qazildi. Biroq, noto'g'ri rejalashtirilgan sug'orish ishlari natijasida suv resurslarining beparvo sarflanishi kuzatildi. Ijtimoiy va iqtisodiy natijalar; bu islohotlar natijasida O'zbekistonning qishloq xo'jaligi tizimi to'liq Sovet iqtisodiy modeli asosida shakllandi. - Mahalliy aholining an'anaviy xo'jalik yuritish tartibi buzildi. -Dehqonlarning iqtisodiy mustaqilligi yo'qoldi va ular davlatga qaram bo'lib qoldi. -Oziq-ovqat mahsulotlari yetishmovchiligi sababli turli qiyinchiliklar yuzaga keldi. 20-yillar oxirlariga kelib qishloqlarda bozor munosabatlari muhiti tobora ko'proq barham topa boshlagan edi. Sho'ro davlati 1929 yilning kuzidan boshlab kooperatsiyani rivojlantirish siyosatini har tomonlama jamoalashtirish siyosati bilan almashtirdi. Ayni paytda mahalliy sharoit mutlaqo hisobga olinmadi. Buning ustiga mahalliy matbuot ham «kollektivlashtirish uchun barcha imkoniyatlar mavjud», degan xato fikrlarni yoritib bordi. Xulosa qilib aytganda Kollektivlashtirish natijasida asrlar davomida

shakllangan an'anaviy dehqonchilik madaniyati yemirildi. Qishloq aholisi o'z yeriga egalik tuyg'usidan ayrildi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va mahalliy boshqaruv shakllari yo'qolib bordi. Bu holat xalqning tarixiy xotirasi va madaniy merosiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston hududida kollektivlashtirish ayniqsa paxtachilikka yo'naltirilgan siyosat bilan bog'liq bo'ldi. Majburiy paxta yetishtirish dehqonlarning oziq-ovqat ekinlarini kamaytirishiga olib keldi. Natijada aholining turmush darajasi pasaydi, ekologik muammolar kuchaydi va qishloq xo'jaligi bir yoqlama rivojlandi. Sovet davrida amalga oshirilgan kollektivlashtirish siyosati iqtisodiy samaradorlikdan ko'ra ko'proq ijtimoiy va ma'naviy zarar keltirdi. Ushbu siyosat qishloq aholisining turmush tarzini izdan chiqardi, inson huquqlari poymol qilindi va jamiyatda chuqur iz qoldirdi. Kollektivlashtirish oqibatlarini o'rganish bugungi kunda tarixiy xatolardan saboq olish uchun muhim ahamiyatga ega.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ahmedov, B. A. (2001). O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari. Toshkent: Fan nashriyoti, 320 b.
2. Allworth, E. (1967). Central Asia: A Century of Russian Rule. New York, NY: Columbia University Press, 698 p.
3. Conquest, R. (1986). The Harvest of Sorrow: Soviet Collectivization and the Terror-Famine. New York, NY: Oxford University Press, 412 p.
4. Fitzpatrick, S. (1994). Stalin's Peasants: Resistance and Survival in the Russian Village after Collectivization. New York, NY: Oxford University Press, 386 p.
5. Karimov, I. A. (1998). Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserni, 31 b.
6. Khalid, A. (2015). Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. Ithaca, NY: Cornell University Press, 448 p.
7. Shamsutdinov, R. (2005). Qatag'on qurbonlari xotirasi. Toshkent: Sharq, 288 b.
- Usmonov, Q. (2015). O'zbekiston tarixi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 400 b.